

**BOSHLANG`ICH SINFLARDA TA`LIM SIFATINI OSHIRISHDA TEXNIK
VOSITALARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

Karamatova Dilfuza Sadinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o`qituvchisi

Murodova Malika Ma`rufjon qizi

TDPU BT 1-bosqich talabasi

[**https://doi.org/10.5281/zenodo.6588444**](https://doi.org/10.5281/zenodo.6588444)

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda ta`lim sifatini oshirishda texnik vositalardan foydalishning ahamiyati, ulardan samarali foydalanish hamda texnik vositalardan foydalanishning o`quvchi va o`qituvchining pedagogik jarayonidagi o`zgarishlari yoritilgan.

Kalit so`zlar: kommunikatsiya, texnologiya, axborot, texnik vosita, ta`lim, o`qituvchi, pedagogika, innovatsion.

**ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ДЛЯ
ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

Аннотация. В данной статье рассматривается значение использования технических средств в повышении качества образования в начальной школе, их эффективное использование и изменения в педагогическом процессе учащихся и учителей при использовании технических средств.

Ключевые слова: коммуникация, технологии, информация, технический инструмент, образование, учитель, педагогика, инновационный.

**EFFECTIVE USE OF TECHNICAL MEANS TO IMPROVE THE QUALITY OF
EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL**

Annotation. This article describes the importance of the use of technical means in improving the quality of education in primary school, their effective use and changes in the pedagogical process of students and teachers of the use of technical means.

Keywords: communication, technology, information, technical means, education, teacher, pedagogy, innovation.

KIRISH

Hozirgi kundagi global o`zgarishlar, axborot-kommunikatsiya va fan-texnika texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi hozirgi davr o`qituvchisidan pedagogik mahoratni, o`tkir irodani, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo`lishni talab qildi. Shaxs tarbiyasida maktab ta`limining ahamiyati kattadir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`lim haqida quyidagi fikrlarni bildirib o`tgan: “Ta`lim – O`zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchanlik, faoliyotni baxsh etadi. O`sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo`ladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o`tadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta`lim va ma’naviyatni tushunib yetish boshlanadi”[1]. Buning uchun boshlang`ich sinf o`quvchilarini tarbiyalashda ta`limning zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham unumli foydalanish lozim bo`ladi.

O`qitishning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan tadqiqotchilik metodi ta`lim oluvchilarining ma`lum darajada ilmiy texnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy faoliyatni ko`zda tutadi. O`quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish bo`yicha

dastlabki tajribalar hisoblash taxnikasidan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, bilimlarni hisobga olish va baholashni yaxshilashi, qiyin vazifalarni hal qilishda o`qituvchining har bir ta'lim oluvchiga yakka tartibda yordam berishini ta'minlashi, yangi kurslarga yaratish va qo'yishni osonlashtirish kabi imkoniyatlarini berishini ko`rsatadi. [2]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Respublikamiz ta'lim tizimini zamonaviy darajada takomillashtirish yo`nalishida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli ishlardan ko`zda tutilgan asosiy maqsad – yosh avlodga ta'limtarbiya berish sifati va samaradorligini oshirish, ularni o`z yurtining sodiq farzandi etib tarbiyalash va mustahkam bilim egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Texnika vositasini ta'lim sohasiga tatbiq etish uchun uning elektron manbalarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Bunday ta'lim manbalariga elektron darsliklar, qo'llanmalar, metodik ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar, internet materiallari kiradi.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- O`quv jarayonining jadallahuvini ta'minlaydi;
- O`quvchilarni idrok qilishga yo`naltiradi;
- O`quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- O`quvchilarning dunyoqarashi, ishonchi va axloqiy qiyofasini shakllantirib beradi;
- O`quv ishiga nisbatan o`quvchilarda emotsiyonal munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- Bilimlarni va o`z-o`zini nazorat qilishni ta'minlaydi.[3]

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o`qituvchining pedagogik faoliyatida:

- ta'limning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog`liq bo`lgan murakkab jarayon yengillashadi;
- dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus ko`nikma va malakalar shakllantiriladi;
- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo`lgan talablar va o`quv materiallarining sifatini nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo`ladi;
- ta'lim jarayonida o`quvchilarning mustaqil faoliyati takomillashadi;
- dars jarayonining samaradorligi o`qituvchidan o`quvchiga ko`chadi;
- zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o`qituvchi pedagogik faoliyatida har bir o`quvchi bilan teskari aloqasi vujudga kelishi ta'minlanadi.[4]

TADQIQOT NATIJALARI

Eng so`nggi texnik yutuqlar ko`pincha ta'lim jarayonida o`zining munosib o`rnini egallagan, bu ma'noda axborot kommunikatsiya texnologiyalari ham istisno emas. O`quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalar hisoblash texnikasidan foydalanish talim jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirish, bilimlarni hisobga olish va baholashni yaxshilashi, qiyin vazifalarni hal qilishda o`qituvchining har bir ta'lim oluvchiga yakka tartibda yordam berishini ta'minlashi, yangi kurslarni yaratish va qo'yishni osonlashtirish kabi imkoniyatlarni berishini ko`rsatdi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish ustuvor maqsadimiz ekan, zero jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang`ich ta'limning

asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilari ta`lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatning barpo etilishiga xizmat qilish asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjuddir.

Bugungi kunda boshlang`ich sinflarda innovatsion ta`lim texnologiyalaridan foydalanish, ta`lim sifatini oshirish, o`quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, xorijiy tajribalarni o`rganish, o`qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo`yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA

Ma'lumki, boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o`qish darslarida amalga oshiriladi. O`qish va nutq o`stirish darslari jarayonida dasturda belgilangan mavzular asosida o`quvchilarga muayyan bilim beriladi. O`qish ko`nikmalarini takomillashtira boorish bilan bir qatorda o`quvchilarni ma`naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazida bo`ladi. Boshlang`ich ta`limda o`qish va nutq o`stirish darslari jarayonida dasturining maqsad va vazifalariga ko`ra o`qish darslari orqali o`quvchilar to`g`ri, ongli, ravon, tez va ifodali o`qishga o`rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko`nikmasiga ega bo`lib boradilar va ularda kitobga muhabbat tuyg`usi uyg`otiladi. Mazkur jarayonning sifatlari va samarali amalga oshirilishi bevosita o`qish darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o`quv innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalananishga bog`liqdir.[5]

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`lim-tarbiya berish, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirda axborot texnologiyalardan samarali foydalangan holda ta`lim jarayonini amalga oshirish pedagog xodimlarning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Albatta, bu jarayoni amalga oshirishda texnik vositalardan foydalanish davr taqozosidir. Shunday ekan, boshlang`ich sinf o`qituvchilari ham maqolada keltirib o`tilgan texnik vositalardan samarali foydalangan holda ta`lim jarayonini tashkil etishlari kerak.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nutqi.
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova va boshqalar. Umumi pedagogika – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018. 190-bet
3. R.A.Mavlonova, N.A.Rahmonqulova va boshqalar. Umumi pedagogika – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018. 460-461-betlar